
TOSHLOQ TUMANIDA TADBIRKORLAR UCHUN SAYYOR QABUL O'TKAZILDI

Bugun tuman hokimligida tadbirkorlar muammolarini o'rganish va hal qilish bo'yicha viloyat ishchi guruhining qabuli o'tkazildi.

Unda viloyat hokimi o'rinbosari Iqboljon Ergashev, Biznes-ombudsman viloyat vakili Murodjon Po'latov, viloyat prokuraturasi bo'lim boshlig'i Axmadjon Yunusov, tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektor rahbarlari ishtirok etdi. Qabulda shuningdek viloyatdagi mas'ul korxonalar, tashkilot va boshqarmalar, tijorat banklar vakillari ham qatnashdi.

Sayyor qabul davomida tumanda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning murojaat va takliflari eshitildi. Bildirilgan murojaatlarda hal etilishi mumkin bo'lgan muammolarga amaliy yechimlar belgilandi, mas'ullarga tegishli vazifalar yuklatildi.

Muloqotlarda tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolar va ularning yechimi bo'yicha takliflar borasida ham fikrlar almashildi.

2023-08-05 19:07:45